

EKSPREMENTAL TEATR RIVOJIDA SAHNA ASARLARINING YARATILISH JARAYONLARI

Bozorov Nabi Shuxrat o'g'li

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Aktyorlik san'ati mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Zamira Axmedova

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'qituvchisi, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi davr ekspremental teatrlarining paydo bo'lish tarixi va uning rivojida sahna asarlarining yaratilish jarayonlari xususida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, o'zbek xalq teatrlari va ekspremental teatrlari jarayoni va sohada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma'lumotlar bildirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ekspremental teatr, repertuar, sahna harakati, madaniy hayot, sahna asarlari, ijodkorlik, yangilik

ПРОЦЕССЫ СОЗДАНИЯ СЦЕНИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В РАЗВИТИИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОГО ТЕАТРА

Бозоров Наби Шухрат ўғли

Государственный институт искусства и культуры
Узбекистана Актерское искусство магистр 2 степени

Научный руководитель: **Замира Ахмедова**

Преподаватель Государственного института искусства и культуры
Узбекистана, доцент

Аннотация: В данной статье представлена история возникновения экспериментальных театров новой эпохи и процессы создания сценических произведений в период ее развития. Также была представлена информация о деятельности узбекских народных театров и экспериментальных театров и проводимых в этой сфере реформах.

Ключевые слова: экспериментальный театр, репертуар, сценическое движение, культурная жизнь, сценические произведения, творчество, новаторство.

**CREATION PROCESSES OF STAGE WORKS IN THE
DEVELOPMENT OF EXPERIMENTAL THEATER****Bozorov Nabi Shukhrat o'g'li**State Institute of Art and Culture of Uzbekistan
Acting art (the art of dramatic theater and film acting)
2nd stage graduate studentScientific supervisor: **Zamira Akhmedova**Teacher of the State Institute of Art and Culture of Uzbekistan, associate
professor

Abstract: This article presents the history of the emergence of experimental theaters of the new era and the processes of creation of stage works during its development. Also, information about the process of Uzbek folk theaters and experimental theaters and reforms implemented in the field was presented.

Key words: experiential theater, repertoire, stage movement, cultural life, stage works, creativity, innovation

Mustaqillik yillari teatr san'ati rivojini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning yo'li bir tekis bo'lmagani ko'zga tashlanadi. Bu yo'l ma'lum bir ko'tarilishlar bilan birga, ba'zi yo'qotishlardan ham holi bo'lmadi. Mavzu doirasida imkoniyatlar kengaygani holda, janrlar bir tekis, tengqadamlikda rivojlanmadi. Hatto ba'zi musiqali drama teatrlarining (Andijon, Jizzax viloyat teatrlari) orkestr o'ra (yama)lari yopib tashlandi. Aksar teatrlar kassabopligini ro'kach qilib, komediya janriga zo'r berdi. Buni rejani bajarish, deya o'zini ovutgan rahbarlar ham bo'ldi. Jamoalar ham bunga ko'nikdi, tomoshabin ham aynan shu ruhda tarbiyalandi. Shu ma'noda bu davrni teatrlar uchun katta sinovlar davri deb ham atash mumkin. Sahnalarimizni dastlabki o'n yilliklarda e'tiborda bo'lgan, nafaqat rejissyor va aktyorlar salohiyatini, shuningdek, tomoshabinning estetik dinini oshirishda tengsiz bo'lgan mumtoz meros namunalari asta-sekin tark etdi. Bunga katta mehnat va xarajat sabab ekanligi

ro'kach qilindi. Biroq dadil aytish o'rinli, so'nggi yillarda teatr san'atida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Shu ma'noda Madaniyat va turizm vazirligining davlat teatrlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ijodiy ishlar samaradorligini oshirish hamda repertuar siyosatini zamon talablari darajasida shakllantirish maqsadida respublika teatrlarining 2022-yil repertuar rejasiga bag'ishlangan yig'ilishlari sahna san'ati oldida turgan dolzarb vazifalar ijrosiga qaratilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ijodiy jamoalar imkoniyatlarini to'liq ishga solish, ijodkorlarning iqtidorini to'la namoyon etish, yosh ijodkorlar mahoratini oshirish orqali teatrlarning joriy repertuarini badiiy yuksak asarlar bilan ta'minlashdan iborat. Zero, yuqorida aytganimizdek, bundan bir necha yil avval teatrlarimiz faqat kassabop spektakllarga ruju qo'yib, asosan komediya janriga murojaat etgan bo'lsa, bugungi kunda repertuarni shakllantirishda tarixga qaytish, buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li va amalga oshirgan ishlari orqali ularni o'rnak qilish niyati yana bir bor paydo bo'lgani ko'rinadi. Tarixiy mavzuni o'zlashtirish ancha murakkab. Qolaversa, unga tomoshabinni jalb etish ham oson emas. Lekin shu bilan birga tan olish joiz, o'zbek teatri tarixining eng katta yutuqlari aynan tarixiy mavzuni o'zlashtirish bilan bog'liq. Buyuk ajdodlarimiz haqidagi asarlar aynan teatrlarimiz tarixida ma'lum bir bosqich vazifasini bajarganki, bundan ko'z yumib bo'lmaydi. ¹

Teatrlar repertuarini shakllantirishda milliy va jahon dramaturgiyasi namunalariga birdek e'tibor qaratilayotgani e'tirofli. Xususan, Sofokl, Shekspir, Shiller, Molyer, Pushkin, Chaykovskiy, Gogol, Chexov singari jahon adabiyotining eng ilg'or vakillari ijodi namunalari sahnalashtirilayotgani nafaqat asarlarda ilgari surilgan gumanistik g'oyalarning davrimiz uchun muhimligi, shuningdek, asarlarning rejissyor va aktyorlar mahoratini charxlashdagi ahamiyati bilan ham o'lchanadi.

¹ Xolmirzaev B. "Rejissyorning spektakl ustida ishlashi". Musiqi Nashriyoti. T.: 2009.

Zamonaviy dramaturgiyamizning peshqadam vakillari Sharof Boshbekov, Usmon Azim, Erkin A'zam, Hayitmat Rasul, Nurullo Abbosxon, Salohiddin Sirojiddinov, Qo'chqor Norqobil singari tajribali dramaturglar safini kengaytirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarni ham tilga olish o'rinli. Dramaturgiyani yanada jonlantirish, davrning muhim muammolariga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish maqsadida o'tgan yili Madaniyat vazirligi tashabbusi bilan tashkil etilgan "Tarixiy, zamonaviy dramatik, musiqali drama va qo'g'irchoq pyesalari" tanlovi bu yo'lda qilinadigan ishlar ko'lamini yana bir bor namoyon etdi. Tanlov dramaturgiyaga ijodkorlarni qiziqtirish bilan birga, yangi nomlarning kashf qilinishida muhim omil bo'ldi.²

Tanlovda g'olib bo'lgan asarlarning teatrlarga sahnalashtirish uchun tavsiya etilgani va bugungi kunda ular repertuarlardan o'rin olayotgani quvonarli. Xususan, Salohiddin Sirojiddinovning O'zbekiston xalq yozuvchisi O'lmas Umarbekovning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan "Oqqush qo'shig'i" asari, Minajatdin Qutlimuratovning jamiyatdagi poraxo'rlik va ta'magirlik illatlarini fosh etuvchi "Halollik vaksinasi", folklor manbalar asosida yaratilgan N.Shoyevaning "Nasriddinning sarguzashtlari" shular jumlasidan. Shu bilan birga tarixiy mavzudagi Jo'ra Mahmudning "Shoh Murod", Z.Ne'matovning "Abdurauf Fitrat yohud zulmatdan ziyo izlab" singari asarlar e'tirof etilib, teatrlar repertuari uchun tavsiya etildi. Milliy musiqali asarlar salmog'ini oshirish maqsadida Sultonmurod Olimning "Ko'ngil ovi" asari, Umid Rasulovning o'zbek ayollari sadoqatini tarannum etuvchi "Saodat yo'li", Fotima Mo'minovaning yoshlar o'rtasidagi muhabbat va vafo tushunchalarini aks ettiruvchi "Oq daryoga oqqan armonlar" asarlari teatrlarga sahnalashtirish uchun tavsiya etildi.

Mamlakatimizda teatr san'atining o'rni va uning rivojiga bo'lgan e'tiborning kattaligi nafaqat mavjud teatrlarni rivojlantirish, shu bilan birga yangi teatrlarni

² To'laxo'jaeva M.T. "Teatr tanqidchiligi". San'at jurnali nashriyoti. T.,2015.

tashkil etilayotganida ham ko‘rinadi. Qator qo‘shni davlatlarda teatrlar yopilib, yohud davlat ta‘minotidan chiqib ketayotgan bir vaqtda Marg‘ilonda maqom teatrining tashkil etilishi, “Diydor” yoshlar eksperimental teatr studiyasi, ”Tomosha” bolalar musiqiy teatr studiyalari davlat tasarrufiga o‘tgan buning isboti. Ayniqsa, milliy teatr san‘atining o‘ziga xos turi sifatida maqom san‘ati va teatrning uyg‘unlashgan ko‘rinishi shaklida paydo bo‘lgan maqom teatrining faoliyati e‘tiborli bo‘lmoqda. Jamoa tomonidan sahnalashtirilgan “Xamsa” spektakli o‘tgan yil sarhisobida respublika miqyosida tashkillashtirilgan “Alisher Navoiy siymosi va asarlari sahnada” festivalida eng oliy sovrinni qo‘lga kiritgani e‘tirofli. Davlat teatrlari ro‘yxatida yangi paydo bo‘lgan “Diydor” yoshlar eksperimental teatr studiyasi, ”Tomosha” bolalar musiqiy teatr studiyalari repertuari uchun tanlangan asarlarning mavzu va janr jihatdan rang-barangligi ushbu jamoalardagi ijodiy jarayon haqida ijobiy fikrlarni uyg‘otadi. Xususan, “Tomosha” bolalar musiqiy teatr studiyasining yosh avlod ma‘naviy kamolotida o‘z o‘rni bo‘lishiga shubha yo‘q.³

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.03.2019 yildagi 266-sonli qaroriga asosan “Diydor” yoshlar eksperimental teatr-studiyasi” faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi sohada qilingan islohotlar deborhasi sifatida ko‘zga tashlanadi.⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son qarori hamda mamlakatimizda teatr san‘atini yanada rivojlantirish, teatrlashtirilgan tadbirlar o‘tkazishning g‘oyaviy-badiiy saviyasini, ta‘sirchanligini kuchaytirish, iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijodiy salohiyatini oshirish, yuqori malakali teatr rejissorlari va aktyorlarini amaliy tayyorlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaroriga muvofiq

³ Mahmudov J. Mahmudova H. “Rejissura asoslari”. O‘zbekiston milliy Ensiklopediyasi nashriyoti. T.:2008.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.03.2019 yildagi 266-sonli qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son qarori hamda mamlakatimizda teatr san’atini yanada rivojlantirish, teatrlashtirilgan tadbirlar o‘tkazishning g‘oyaviy-badiiy saviyasini, ta’sirchanligini kuchaytirish, iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijodiy salohiyatini oshirish, yuqori malakali teatr rejissorlari va aktyorlarini amaliy tayyorlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilingan.⁵

Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi, O‘zbekiston teatr arboblari uyushmasi va Toshkent shahar hokimligining Madaniyat vazirligi muassisligidagi “Diydor” rejissorlik va aktyorlik mahorati teatr-studiyasi” davlat muassasasi negizida “Diydor” yoshlar eksperimental teatr-studiyasi” davlat muassasasini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullangan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston teatr arboblari uyushmasi va Toshkent shahar hokimligining Madaniyat vazirligi muassisligidagi “Diydor” rejissorlik va aktyorlik mahorati teatr-studiyasi” davlat muassasasi negizida “Diydor” yoshlar eksperimental teatr-studiyasi” davlat muassasasini (keyingi o‘rinlarda teatr-studiya deb ataladi) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilingan.

Hamda quyidagilar asosiy vazifa sifatida belgilangan. Bular:

-mamlakatimizda teatr san’atini yanada rivojlantirish, teatrlashtirilgan ommaviy tadbirlarning g‘oyaviy-badiiy saviyasi va ta’sirchanligini kuchaytirish, iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijodiy salohiyatini oshirish, yuqori malakali teatr ijodkorlarini amaliy tayyorlash;

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son qarori

-mamlakatimizda teatr san'atini yanada rivojlantirish, teatrlashtirilgan ommaviy tadbirlarning g'oyaviy-badiiy saviyasi va ta'sirchanligini kuchaytirish, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijodiy salohiyatini oshirish, yuqori malakali teatr ijodkorlarini amaliy tayyorlash;

-teatr san'ati sohasida malakali yosh rejissorlar, aktyorlar, dramaturglar, notiqlik san'ati bo'yicha mutaxassislarni izlab topish va ularning mahoratini oshirish maqsadida professional truppa hamda havaskorlik jamoasini tashkil etish;

-teatr san'ati sohasida malakali yosh rejissorlar, aktyorlar, dramaturglar, notiqlik san'ati bo'yicha mutaxassislarni izlab topish va ularning mahoratini oshirish maqsadida professional truppa hamda havaskorlik jamoasini tashkil etish;

-aktyorlik san'ati va rejissorlik bo'yicha teatr va san'at muassasalarining ijodiy xodimlari hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining talaba va o'quvchilari uchun amaliyot kurslari (ijodiy ustaxona) tashkil etish;

-aktyorlik san'ati va rejissorlik bo'yicha teatr va san'at muassasalarining ijodiy xodimlari hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining talaba va o'quvchilari uchun amaliyot kurslari (ijodiy ustaxona) tashkil etish;

-xorijiy davlatlardan malakali mutaxassislarni jalb etgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi teatrlarning yosh iste'dodli - aktyorlari va boshqa ijodiy xodimlari uchun doimiy ravishda trening, mahorat darslari, teatr san'ati bilan bog'liq o'quv-tajriba mashg'ulotlari hamda maxsus loyiha bo'yicha tajriba spektakllari yaratish;

-xorijiy davlatlardan malakali mutaxassislarni jalb etgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi teatrlarning yosh iste'dodli aktyorlari va boshqa ijodiy xodimlari uchun doimiy ravishda trening, mahorat

darslari, teatr san'ati bilan bog'liq o'quv-tajriba mashg'ulotlari hamda maxsus loyiha bo'yicha tajriba spektakllari yaratish;

-mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda gastrol faoliyati, festival, ko'rik-tanlov, teatrlashtirilgan shoular, ma'ruzalar, madaniyat, san'at, ilm-fanning atoqli arboblari bilan uchrashuvlar, dam olish va ijodiy kechalar, maqsadli teatrlashtirilgan marosim kechalari va boshqa tomosha tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazishni ta'minlash.

-mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda gastrol faoliyati, festival, ko'rik-tanlov, teatrlashtirilgan shoular, ma'ruzalar, madaniyat, san'at, ilm-fanning atoqli arboblari bilan uchrashuvlar, dam olish va ijodiy kechalar, maqsadli teatrlashtirilgan marosim kechalari va boshqa tomosha tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazishni ta'minlash kabi asosiy vazifalardir.

Teatr san'atidagi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish amaliyoti bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Tajribali va salohiyati yuqori bo'lgan rejissyorlar va aktyorlarni turli teatrlarga asarlarni sahnalashtirish uchun safarbar etish amaliyoti o'zini oqlab ulgurdi. Xususan, Olimjon Salimov, Valixon Umarov, Marat Azimov, Shomurod Yusupov, Sergey Seduxin singari tajribali rejissyorlar qatoriga dadil kelib qo'shilgan Asqar Xolmo'minov, Malika Iskandarova, Nigora G'oyibnazarova, Obid Abdullayev, Anvar Abdullayev, G'ofur Mardonov singari rejissyorlarni turli teatrlarda asarlar sahnalashtirishlari uchun imkoniyatlar yaratilayotgani jamoalarga yangi "havo" kiritish bilan birga, ijodkorlarning yangi qirralarini kashf etilishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat sog'lom raqobatni shakllantirib, badiiy yuksak asarlar yaratilishiga undaydi.

Qolaversa, teatr san'ati yangilanuvchi jarayon, unda yoshlarning yangiliklari, zamonaviy qarashlari juda ham zarur. Shu ma'noda yangi Renessansning asosiy maqsadi nafaqat yangi nomlarni aniqlash, shuningdek, ularga mas'ul vazifalarni ishonib topshirishda ham ko'zga tashlanadi. Asqar Xolmo'minovning Milliy

akademik drama teatri, Nigora G‘oyibnazarovanning Sirdaryo viloyat musiqali drama teatri, Anvar Abdullayevning Farg‘ona viloyati rus drama teatri, Obid Abdullayevning Farg‘ona viloyati musiqali drama teatridagi bosh rejissyor lavozimlarida boshlagan faoliyatlari o‘z natijalarini bermoqda. Xususan, Asqar Xolmo‘minov sahnalashtirgan “Tong otgan taraflarda”, “O‘zgalar dardi”, “Urush odamlari” spektakllari, Nigora G‘oyibnazarovanning Sirdaryo teatrida sahnalashtirgan “Otamdan qolgan dalalar”, “Momo yer” spektakllari, Anvar Abdullayevning “Qaysar qizning quyilishi”, “Yevgeniy Onegin”, “Shoh Baxrom uchun Moh” singari spektakllari, Obid Abdullayev tomonidan Farg‘ona viloyati musiqali drama teatrida sahnalashtirilgan “Lola yohud barxanlarda ungan gul” spektakllari o‘zbek teatriga umidli rejissyorlar kirib kelayotganining yorqin isboti.⁶

O‘zbek teatrlarida amalga oshirilayotgan ishlarning ko‘lami keng. Undan kutilayotgan natija ham katta. Sahna san‘ati avvalo insonga, uning ma‘naviy kamolotiga, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qilar ekan, uning ijodkorlari o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni barcha davrlarda bo‘lgani kabi sidqidildan bajarishlarida faqat sobitqadamlik tilaging keladi.

So‘z o‘rnida e‘tiborimizni bugungi kunda rivojlanib borayotgan va sohada yangilik hisoblangan eksperimental teatrning ba‘zi kashshoflari qatorida fransuz yozuvchisi va taniqli teatr asari muallifi Alfred Jerri (1873-1907) ni aytishimiz mumkin. Ubu King. Bu 19-asrning oxiriga kelib teatrni yozish va ishlab chiqarish uslubining o‘zgarishiga ta‘sir ko‘rsatgan teatrlashtirilgan asarlardan biri bo‘lib, keyinchalik absurd teatri uchun birinchi turtki bo‘lgan.⁷

Eksperimental teatr Evropada avangard harakati ta‘siridan kelib chiqqan va uning mashhurligi 20-asrning birinchi yarmida oshgan. Vaqt uchun realizm va tabiiylik ustun tendentsiya edi va bunga qadar tajriba teatri javob sifatida paydo

⁶ Rizayev Sh. Sahna ma‘naviyati – T.: Ma‘naviyat, 2010.

⁷ Кнебель М.О. Слово в творчестве актера. М., 1964.

bo'ldi. Badiiy olam ichidagi avangardlar badiiy ishlab chiqarish doirasida yangilik izladilar. Demak, eksperimental teatr "nomi bilan ham tanilgan avangardteatr" yoki avangard teatri. Ushbu doirada yuqorida aytib o'tilgan Alfred Jerri yoki Antonin Artaud (1896-1948) kabi mualliflar paydo bo'ladi, ularning asarlari sahna tilining yangi shakllarini birinchi marta yaratishga imkon berdi.

Eksperimental teatr 1940-yillarda Amerikaga, aniqrog'i Qo'shma Shtatlarda kirib keldi. Kolumbiya universitetining teatr professori Arnold Aronson Amerikadagi eksperimental teatr tarixi haqidagi kitoblaridan birida 1950-1980-yillar oralig'ida teatr faoliyati shou darajasida qanday qayta ishlanganligini tasvirlaydi. Teatrning ushbu shakli real dunyoni odatiy tarzda takrorlashga e'tibor bermaydi, aksincha, u hayot tajribasini taqdim etishning yangi uslubini aks ettirishga qaratilgan. 8 20-asrda eksperimental teatr o'zining kengayishi davomida boshqa yangi badiiy ifoda turlari bilan ta'minlandi: Masalan, 50-yillarda paydo bo'lgan, bu chiziqli bo'lmagan tuzilishga ega bo'lgan va uni namoyish qilish uchun o'ziga xos joyga ega bo'lmagan talqinning bir turi. U jamoatchilik bilan o'zaro aloqada bo'lib, uni faol birlashtiradi. Yana bir misol ijrochilik san'ati yoki san'atning ishlash, jonli, omma oldida va kundalik hayotda ijro etilishi bilan ifodalanadigan vakillik turi. Siz aktyorlik, raqs, musiqa, she'riyat va hatto rasm kabi turli xil san'at turlarini birlashtira olagan.

Mana shu ta'sir va xususiyatlarning barchasi eksperimental teatrni avangardga aylantiradi. Uning doimiy ravishda yangilik izlashi va g'ayritabiiy yo'nalishi unga jamoat uchun boshqa hayotiy tajribani yaratish uchun til va vakillikning yangi shakllarini yaratishga imkon beradi.

Eksperimental teatrning asosiy xususiyatlari: eksperimental teatr an'anaviylardan farqli ravishda teatrlashtirilgan tajribani taklif qiladi. Ko'p marta

8 Jean Benedetti, Konstantin Sianislavsky. An actor's work : a student's diary. Routledge, 2008.

tinglovchilarni jalb qilish yoki ular bilan suhbat qurish, shuningdek, tomoshabinning idrokini o'zgartirish uchun mo'ljallangan o'z tiliga asoslangan bo'ladi. Bu rejissyor va aktyorlarning o'ziga xos taklifidan kelib chiqqan holda o'z koinotida o'zini tiklashga xizmat qiladi. Bu teatr tomoshasi doirasidagi yangiliklarning barcha turlarini qamrab oladi. Hatto tarixga sayohat qilishning boshqa usulini taklif qilgan holda tomoshabinlarni sahnaga jalb qilishingiz mumkin:

Bu teatr tomoshasi doirasidagi yangiliklarning barcha turlarini qamrab oladi. Hatto tarixga sayohat qilishning boshqa usulini taklif qilgan holda tomoshabinlarni sahnaga jalb qilishingiz mumkin.

- raqs, musiqa va she'riyat kabi badiiy ifodalashning ko'plab turlarini birlashtiradi.

- Bu bo'shliqni erkin manipulyatsiya qilishga imkon beradi va jamoat maydoni sahnadan frontal ravishda ajratilgan an'anaviy italyan teatri kabi o'ziga xos teatr arxitekturasiga bog'liq emas.

- Eksperimental teatr ichidagi dramaturgiya o'ziga xos tuzilishga ega emas va chiziqli yoki xronologik xarakterga ega emas.

- Eksperimental teatr o'zining so'z boyligini va o'ziga xos simbologiyasini birlashtirishi mumkin, bu unga turli ma'no va talqinlarni beradi.

- Eksperimental teatr yo'nalishlari ichida syurrealizm va ekspresionizm mavjud bo'lib, ular ijod uchun havola sifatida.

Shu o'rinda aynan eksperimental teatr ijodkori sifatida shoir, dramaturg, aktyor va syurrealizm nazariyasi sohibi Antonin Artaud (1896-1948) haqida fikr yuritish ekanmiz, u o'sha davrdagi klassik burjua teatri o'rnini "shafqatsizlik teatri" ga almashtirish g'oyasining targ'ibotchilaridan biri edi. Muallif tomonidan taklif qilingan ushbu uslub insonni ong ostini hayratga solishga va uyg'otishga,

shuningdek, odamni o'zidan oldinroq ochib berishga intilgan.

Uning asarlarida Shafqatsizlik teatri singari. Birinchi manifest Teatr va uning dubli, sehrli ekzorsizm orqali aktyor va tomoshabinlar o'rtasidagi aloqani yaratish g'oyasini himoya qiladi. So'zdan tashqariga chiqadigan tilni yaratish uchun imo-ishoralar, tovushlar va chiroqlarning kombinatsiyasi bilan g'ayrioddiy sozlamalardan foydalanishni taklif qiladi. U tomoshabinga dunyoning beadabligini topish uchun fikr va mantiqdan xalos bo'lishga yordam berishga intildi. Tomoshabin uchun noan'anaviy sayohatni yaratishning ushbu o'ziga xos usuli uchun u eksperimental teatr kashshoflarining bir qismi sifatida tan olingan. 20-asr teatri etakchi islohotchilaridan biri bo'lgan nemis shoiri va dramaturgi Bertolt Brext (1898-1956) xususida to'xtalar ekanmiz, 20-asrning 20-yillaridan boshlab u yozishni boshladi va shuningdek, o'zining burjua qarshi kurashini rivojlantirdi va uni o'zining yozma asarlarida aks ettirdi.⁹

O'zining dramaturgiyasi tarkibiga "epik teatr", teatr matni ichidagi modallik kiradi, unda bir-biriga zaif bog'langan sahnalar uzluksiz tarix illyuziyasidan qochib, xalq bilan oydinlik kiritish uchun tez-tez uzilishlar qiladi, masalan. vaziyat yoki belgining ba'zi dalillari. Brextning taniqli asarlari orasida: Uch tsentlik opera (1928), Se-Chuanning yaxshi ruhi (1943), Kavkaz tebeşirlari doirasi (1948) kabi asarlar kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xolmirzaev B. "Rejissyorning spektakl ustida ishlashi". Musiqa Nashriyoti. T.: 2009.;
2. To'laxo'jaeva M.T. "Teatr tanqidchiligi". San'at jurnali nashriyoti. T.:2015.;
3. Mahmudov J. Mahmudova H. "Rejissura asoslari". O'zbekiston milliy Ensiklopediyasi nashriyoti. T.:2008.;

⁹ Lenard Petit. The Micael Chekhov Handbook-For the Actor, Routledge, 2010.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.03.2019 yildagi 266-sonli qarori;
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son qarori ;
6. Кнебель М.О. Слово в творчестве актера. М., 1964.;
7. Jean Benedetti , Konstantin Sianislavsky. An actor's work : a student's diary. Routledge, 2008.